

## XORAZM DOSTONLARI TILIDA UCHRAYDIGAN REAL VA NOREAL SHAXS NOMLARI

**Quvondiq Olloyorov**  
UrDU dotsenti

**Davlatnazar Davlatnazarov**  
UrDU talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Xorazm dostonlari matnlarida uchraydigan kishi nomlarining leksik-semantik jihatlari yuzasidan fikrlar o‘rin olgan. Shuningdek, maqolada dostonlarimiz tilidagi shaxs nomlarining tarixda yashagan real shaxslarning nomlari hamda voqealar bayoni uchun o‘ylab topilgan, to‘qima nomlarga ajratilgan holda mulohaza yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** shaxs nomi, kishi ismi, antroponim, real nom, noreal nom, to‘qima nom...

### ANNOTATION

*This article contains thoughts on the lexical-semantic aspects of personal names found in the texts of Khorezm epics. Also, the article discusses the names of people in the language of our epics, separating them into the names of real people who lived in history and the fictional names invented for the narration of events.*

**Key words:** person's name, person's name, anthroponym, real name, non-real name, tissue name...

### АННОТАЦИЯ

*Данная статья содержит размышления о лексико-семантических аспектах личных имен, встречающихся в текстах хорезмских эпосов. Также в статье рассматриваются имена людей языком наших былин, разделяя их на имена реальных людей, живших в истории, и имена вымышленные, придуманные для повествования о событиях.*

**Ключевые слова:** имя человека, имя человека, антропоним, настоящее имя, ненастоящее имя, название ткани...

O‘zbek nomshunosligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarda real va noreal obyektlarni ifodalovchi nomlar (atoqli otlar) haqida quyidagicha ta’riflar va sharhlar berilgan.

1. Realionim (nemischa “real”, “real” va lotincha “realis” – narsaga oid haqiqiy) obyektiv olamda haqiqatdan mavjud narsa, hodisa va obyektlar nomi.
2. Real nom – realionim.

3. Real shaxs nomi – hayotda haqiqatda yashayotgan yoki yashab o'tgan shaxsning atoqli oti<sup>21</sup>.

Ushbu ma'lumotlar E. Begmatov va N.Uluqovlar tomonidan nashr etilgan "O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati" Namangan-2006 kitobidan olindi. Ammo shu va shunga o'xshash ilmiy adabiyotlarda noreal obyektlarni ifodalovchi nomlar xususida yetarlicha sharhlar va ma'lumotlar keltirilmagan. Masalan, yuqorida tilga olingan manbaning 20-betida "afsonaviy nomlar" haqida shunday ma'lumotlar beriladi: "moddiy olamda real mavjud emas, ammo hayolan mavjud deb hisoblanuvchi obyektlar (hayvonlar, narsa va hodislar, shaxslar) atoqli oti"<sup>22</sup>.

Shundan so'ng "afsonaviy toponimlar", "afsonaviy shaxs(lar) nomi" kabi atamalar sharhlangan bo'lsa, 47-betda "mifik nom", "mifonim", "mifologik obrazlar nomi", "mifotoponim" va boshqa atamalar sharhlangan. Biroq "mif" so'zi "afsona" so'ziga mos kelishini esga olgan holda, yuqoridagi atamalar sharhiga diqqatni qaratsak, "afsonaviy nom" bilan "mifonim" atamasi mantiqan bir narsa yoki tushunchani anglatishi mumkin. Ammo nashrda mifik nomlar sharhida: "mifonim" – yunoncha "mifog" – afsona, ertak; + "onoma" – atoqli ot) afsonalar, epopeyalar, ertaklarda uchraydigan atoqli otlar"<sup>23</sup> deya ta'rif berilgan. Bu sharhdan kelib chiqadigan bo'lsak, afsona, ertak, dostonlarda uchraydigan har qanday nom "mifik" nom atamasi ostiga birlashaveradimi? Axir, afsona va rivoyatlar, doston va epopeyalarda uchraydigan nomlar orasida real ob'jekt va hodisalarni ifodalovchi atoqli otlar ham mavjud. Ularni ham "mifik nom" lar toifasiga kiritsak, mantiqiylik va atamalar sharhidagi izchilikka, bizningcha, putur yetadi. Shu sababdan, ushbu hodisani o'rganar ekanmiz, Xorazm dostonlari leksikasida atoqli otlarni, biz, real va noreal obyektlarni ifodalovchi nomlar deb atash to'g'riroq degan fikrga keldik. Ilmiy adabiyotlardagi nomutanosiblikni biz o'zimizning ilmiy xulosalarimizga tayangan holda, yoritishga harakat qilish niyatidamiz.

Folklor onomastikasi juda kam o'rganilgan sohalardan ekanligi haqida yuqoridagi boblarda fikr bildirgan edik. Shularga qo'shimcha ravishda yana shuni aytishni joiz deb hisobladik. Tadqiqotchilar Do'smurod Abdurahmonov va Habibulla Bektemirovlarning "O'zbek xalq dostonlari onomastikasi" deb nomlangan maqolasida "O'zbek xalq dostonlari leksikasidagi atoqli otlar miqdor jihatdan eng kam sonli so'zlardir"<sup>24</sup>, – deb keltirishlari bejiz emas. Chunki, alohida olingan bir dostondagi atoqli otlarni hisoblaydigan bo'lsak juda kam miqdor kelib chiqadi. Yuqorida tilga olib o'tgan mualliflar ishida keltirilishi bo'yicha o'n ikkita dostondan 470 ta nom

<sup>21</sup> Begmatov E. Uluqov N. O'zbek onomastik terminlarining izohli lug'ati. Namangan. 2006. 20-bet.

<sup>22</sup> Begmatov E. Uluqov N. Keltirilgan manba. 20-bet.

<sup>23</sup> Begmatov E. Uluqov N. Keltirilgan manba. 47-bet.

<sup>24</sup> Abdurahmonov D., Bektemirov H.. O'zbek xalq dostonlari onomastikasi. Toshkent. 1967.

aniqlangan<sup>25</sup>. Bu miqdor dostonlar orasida takror qo‘llanilgan nomlarni ham qo‘shib hisoblagan holatda yuzaga kelgan. Agar takror qo‘llanayotgan nomni hisobga kiritmaganda bu miqdor yana-da kamayishi aniq va ravshan ko‘rinib turibdi. Vaholanki, nechta nom qo‘llangan degan savolga takrorlarni hisobga olmagan holda javob berish mumkin.

Agar har bir dostondagi atoqli otlarning miqdorini, dostonlarda qo‘llaniladigan an’anaviy nomlar, ya’ni, Olloh va uning sifatlarini ifodalovchi nomlar, payg‘ambarlar va diniy martabaga ega bo‘lgan mashhur shayx va avliyolar nomlarini, mumtoz adabiyotga mansub talmehlarini hisobga olmagan holda faqat ma’lum dostondagina mansub nomlar bilan chegaralangan holda belgilaydigan bo‘lsak 10-15 tadan oshmasligi ham mumkin.

Ayrim dostonlarda esa bundan ham kam bo‘lishi mumkin. Masalan, “Oshiqnoma” turkum dostonlari tarkibida nashr qilingan “Oshiq G‘arib va Shohsanam” dostonida (ikkinchi kitob 12-139 betlar; to‘rtinchi kitob 10-31 betlar) keltirilgan atoqli otlarni hisoblash jarayonida hammasi bo‘lib oltmishga yaqin nom qo‘llangani ma’lum bo‘ladi. Shundan o‘n to‘rtta nomgina zikr etilgan dostonning o‘ziga tegishli bo‘lib, qolgan nomlar, Xorazm dostonlarida qo‘llanib kelinayotgan an’anaviy takrorlanadigan atoqli otlardir. Agar bu nomlarni badiiy asarlar tilidagi nomlar bilan qiyoslasak, ularning deyarli katta ko‘pchiligi takrorlanib qo‘llanilganligining guvohi bo‘lamiz. Ana shu holatni hisobga olsak, atoqli otlar hajman olganda boshqa so‘zlarga qaraganda ancha kam miqdorni tashkil etadi degan yuqoridagi fikrlarning qanchalik to‘g‘ri ekanligi ma’lum bo‘ladi.

Dostonlar leksikasidagi atoqli otlarni o‘rganishda ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning an’analariga binoan, Xorazm dostonlaridagi atoqli otlarni ham turli mavzuiy guruhlariga ajratish mumkin. Masalan, kishi nomlari, joy nomlari, osmon jismlari nomlari, tog‘ va ko‘llarning nomlari va hokazolar<sup>26</sup>.

Olib borilgan ayrim ilmiy tadqiqotlarda turdosh otlarga nisbatan “shaxs nomlari” atamasini qo‘llash holatlari ham ko‘zga tashlanadi. Bu, bizningcha, noto‘g‘ri, chunki “shaxs nomlari” deganimizda “nom” atamasi ishlatilgan. Bu so‘z faqat atoqli otlarga nisbatan qo‘llanilishi keyingi davr adabiyotlaridan bizga ma’lum. Bu holatga jiddiy qaralmasa, ikki atama bir biri bilan chalkashib ketishi mumkin: “Shaxs otlari” va “shaxs nomlari”. Bu ikki atama ham ot so‘z turkumi doirasidagi atamalar bo‘lib, har ikkisi ham kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan otlarga taalluqli ekanligi bilan xarakterlidir. Biroq, “shaxs otlari” deyilganda turdosh otlarning bir turi sifatida qaralishi ilmiy adabiyotlarda keltirib o‘tilgan<sup>27</sup>.

<sup>25</sup> O‘sha asar.

<sup>26</sup> Оллоёров Қ. Хоразм дostonлари ономастикаси. –Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017.

<sup>27</sup> Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. “Ona tili” 6-sinf uchun. 96-105 betlar

Turdosh otlarning turlari sifatida N. Mahmudov, A. Nurmetov, A. Sobirov, D.Nabiyevlar tomonidan nashrga tayorlangan 6-sinf uchun darsligida shaxs otlari, narsa otlari, va o‘rin joy otlari kabi turlar ko‘rsatilgan. Shu darslikning 105-betida shaxs otlariga shunday ta‘rif berilgan. “Shaxs otlari – kim? kimning? kimni? kimga? kimda? kimdan? so‘roqlariga javob bo‘ladi. Shaxslarni yoshiga, yashash joyiga, mansab-unvoniga, kasb-koriga, ijtimoiy holatiga, qarindoshlik darajasiga, nasl-nasabiga ko‘ra nomlab keladi<sup>28</sup>.”

Shulardan ko‘rinadiki, “shaxs otlari” atamasi keyingi davr o‘zbek tilshunosligiga taalluqli ilmiy adabiyotlarda faqat turdosh otlar ma‘nosini ifodalaydi. Biz esa Xorazm dostonlaridagi shaxslarga atab qo‘yilgan nomlar haqida fikr yuritir ekanmiz, ushbu atamalarni qo‘llashdagi nomutanosiblikka barham berib, mantiqiylikni saqlagan holda o‘z maqsadimizni amalga oshirishni maqsad qilganmiz.

Folklor asrlari leksikasi va badiiy asarlar matnlaridan o‘rin olgan atoqli otlarni izlash, ularni to‘plab ma‘lumotlar bazasini tayyorlash jarayonida shu narsa ko‘zga tashlandiki, bu nomlarning turli jihtlarini tadqiq etish, qiyoslash, umumiy va farqli tomonlarini tadqiq qilish o‘zbek onomastikasini ancha muhim ma‘lumotlar bilan boyitadi. Folklor asrlari va yozma adabiyotga aloqador asarlar tilidagi atoqli otlar bo‘yicha eng avval ko‘zga tashlanuvchi va tadqiqotchini jalb qiluvchi hodisa nomlarning real va noreal obyektlarni ifodalab kelishi masalasidir.

Folklor asarlari va yozma adabiyotga aloqador asarlardagi kishi nomlari real tarixiy shaxslarning nomlari va shu bilan birga o‘ylab topilgan noreal kishilarning nomlari ham uchrashi olib borilgan kuzatishlardan ma‘lum bo‘ladi.

Tarixiy shaxslar bilan bog‘liq takroriy nomlar haqida gap ketganda ular, eng avvalo, mashhur shohlar, payg‘ambarlar, shoirlar va boshqa shaxslarning nomlaridir. Yozma adabiyotda o‘ziga xos o‘rin tutuvchi A. Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni – Xamsaning birinchi asarining o‘ziga xos o‘rni va mavqeyi haqida aytib o‘tirishning zarurati bo‘lmasa kerak. Shu asarda uchraydigan ayrim kishi nomlari bilan folklor asarlari, xususan, dostonlar leksikasidagi ayrim nomlarning umumiyliklari o‘ziga xoslik kasb etadi. Quyidagi misollarga murojaat etaylik:

*Jamshid, Faridunman Zol-u Rustamzar,  
Yurtni olgan shoh Iskandar qolmadi...<sup>29</sup>*

(“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlaridan)

Ushbu satrlar dostonlar leksikasiga taalluqli bo‘lib, folklor asarlariga xos bo‘lgan xarakterli nomlarni o‘zida aks ettirgan bo‘lsa;

<sup>28</sup> O‘sha asar. 105-bet.

<sup>29</sup> Go‘ro‘g‘li. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar T. Mirzayev va Z. Husainova. Toshkent. Sharq. 2006. 206-bet.

*... Chun ko‘rib ul Zolni bir Rustame  
Bo‘ldi havosida asiri g‘ame...* yoki,

*... Ko‘rdi qayon bordi Faridin-u Jam,*

*Erjas-u Hushang ila Zahhok ham*<sup>30</sup> ... kabi misollardan ko‘rinib

turibdiki, folklor asarlari va yozma adabiyotdagi nomlarning qaytariq qo‘llanishi o‘ziga xosliklari bilan alralib turadi. Yuqoridagi misollarda *Rustam, Zol, Faridun, Jam (Jamshid), Zahhok, Hushang* kabi antroponimlar qaytariq holatda qo‘llanganiga guvoh bo‘lamiz. Bu nomlar aslida Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asaridan olingan bo‘lishi ilmiy yo‘nalishdagi tadqiqotlardan ma‘lum.

Shu asarda uchraydigan *Taxmuras, Faridun* nomlari folklor asarlarida yanada keng miqyosda takrorlanib qo‘llanuvchi kishi nomlaridan hisoblanadi. Quyidagi misollar buni tasdiqlaydi:

*... Haqning arslonidur ul Shohimardon,*

*Bobomiz go‘iyo Taxmuras arslon...*<sup>31</sup>

Yozma adabiyot va folklor asarlari leksikasidagi eng faol qo‘llanuvchi kishi ismlaridan biri “Iskandar” nomidir. Bu nomning etimologiyasiga oid turli xil ma‘lumotlar mavjud. Ayrim adabiyotlarda Sharq xalqlari antroponimikasidan o‘rin olgan “Iskandar” nomi Yevropaliklarda uchraydigan “Aleksandr” nomidan kelib chiqqan deya talqin qilinadi. Bu nom shunday tarzda kelib chiqqan bo‘lishi mumkin, ammo hamma o‘rinlarda ham Iskandar Zulqarnayn – Aleksandr Makedonskiyni anglatadi deyish haqiqatga yaqin emas. Shunday bo‘lsa ham, “Iskandar” nomi yozma adabiyot va og‘zaki ijod asarlari uchun birdek takror qo‘llanaveradi. Misol:

*...Avazjon o‘g‘lim, hazrati Iskandar shoh-da meningday yurtni odil  
so‘ramag‘on edi...*<sup>32</sup> yoki:

*... Muningdin osmon-u falakni qoltiratg‘an urush Iskandar zamoninnan bari  
bo‘lmag‘an akan.*<sup>33</sup>

Yozma adabiyotda, xususan, Navoiy ijodida “Iskandar” aynan shu shaklda vazn talabi bilan “Skandar” shaklida ham qo‘llanilganligini quyidagi misollardan bilib olish mumkin:

*... Salm-u Manucehr ila Navroz qani?*

*Bahman-u Doro-vu Skandar qani?*

*Qoni jahondovari Chingizxon?*

*Qoni jahon xoni Temur ko‘ragon?...*<sup>34</sup>

<sup>30</sup> Navoiy. Hayrat ul-abror. O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. Mas‘ul muharrir Vahob Rahmonov. Toshkent. G‘.G‘ulom nashriyoti. 1989-yil. 149-bet.

<sup>31</sup> Oshiqnoma 1- kitob. Nashrga tayyorlovchi prof. S. Ro‘zimboyev. “Roiy chin” dostoni. Xorazm. 2006. 157-bet.

<sup>32</sup> Go‘ro‘g‘li. 1-kitob. Nashrga tayyorlovchi prof. S. Ro‘zimboyev. “Arab tang‘an” dostoni. Urganch. Xorazm nashriyoti. 2004. 137-bet.

<sup>33</sup> O‘sha asar. 188-bet.

<sup>34</sup> Navoiy. Hayrat ul-abror. O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. Mas‘ul muharrir Vahob Rahmonov. Toshkent. G‘.G‘ulom nashriyoti. 1989-yil. 150-bet.



Folklor asarlari va yozma adabiyotga aloqador real tarixiy shaxs nomlari orasida yuqorida tilga olib o'tilgan *Chingizxon*, *Amir Temur*, *Doro* kabilardan tashqari, mashhur shoirlar *Nasimiy*, *Jomiy*, *Navoiy* kabilarning nomlari, taxalluslari ham keltiriladi. Masalan,

... *Bir madad aylangiz pirim Navoiy,*  
*Rahm eta ko'r holi zorima maning...*<sup>35</sup> yoki,  
 ... *Nasimiyday go'yo terim so'ydilar,*  
*Tayoq olib cho'ldan-cho'la quvdilar...*<sup>36</sup> yoki,  
 ... *Kechalar yoz etar nasihat shomi,*  
*Navoiyning piri mavlono Jomiy...*<sup>37</sup> va boshqalar.

Folklor asarlari va yozma adabiyotda uchraydigan kishi ismlari orasida real hayotda yashamagan, o'ylab topilgan yoki tarixda yashaganligi haqida aniq ma'lumotlar uchramaydigan kishilarning ismlarini ifodalovchi nomlar ham qaytariq holda ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Bularga misol qilib *Hotam (Toyi)*, *Qorun*, *Shirin*, *Farhod*, *Layli*, *Majnun* kabi bir qancha nomlarni keltirish mumkin.

Yozma adabiyot hamda folklor asrlari leksikasidagi nomlar ichida *Hotam* nomi ham ancha faol nomlardan sanaladi. Mazkur nom Xorazm dostonlarida *Hotam*, *Hotami toyi* shakllarida uchraydi. A.Navoiyning "Hayrat ul abror" dostonidan olgan quyidagi parchalarda ham mazkur nom o'ziga xos nozikliklari bilan tasvirlanganini ko'rish mumkin:

...*Kaflaring oyini chu bermak bo'lub,*  
*Qul munga Hotam, anga Barmak bo'lub*<sup>38</sup>... yoki,  
 ...*Hotami Toyig'a bir ozodavash,*  
*Dediki: "Ey, himmating ozodakash"*<sup>39</sup>...

Folklor asarlari va yozma adabiyotga aloqador qaytariq nomlar orasida *Qorun* nomi ham keng qo'llaniladigan nomlardan biridir. Quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

...*Kimki erur maxzani Qorun aning,*  
*Mulki Jam-u toji Faridun aning*<sup>40</sup>... yoki,  
 ...*Faqr berib maxzani Qorun anga,*  
*Foqa bo'lub mulki Faridun anga*<sup>41</sup>...

<sup>35</sup> Oshiqnoma 2-kitob. "Miskin va Gulqand" dostoni. 216-bet.

<sup>36</sup> Oshiqnoma 2-kitob. "Shahriyor" dostoni. 422-bet.

<sup>37</sup> Oshiqnoma 2-kitob. "Miskim va Gulqand" dostoni. 216-bet.

<sup>38</sup> Navoiy. Hayrat ul-abror. O'zbek adabiyoti bo'stoni. Mas'ul muharrir Vahob Rahmonov. Toshkent. G'.G'ulom nashriyoti. 1989-yil. 64-bet.

<sup>39</sup> O'sha asar, 70-bet.

<sup>40</sup> O'sha asar, 83-bet.

<sup>41</sup> O'sha asar, 86-bet.

Umuman olganda, yozma va og‘zaki adabiyotga aloqador asarlar tilida kishi nomlarining takrorlanib qo‘llanishida juda ko‘p o‘ziga xosliklar mavjud. Masalan, ayrim nomlar yozma adabiyotda ham, og‘zaki adabiyotda ham aynan bir shaxsni nomlab keladi va shu ma’nodan ishlatiladi; ba’zi kishi nomlari esa bir xil shaklda bo‘lishiga qaramay, boshqa-boshqa shaxslarni atab kelishi mumkin.

Asar qahramonlarining ismlarini ifodalovchi nomlar eng ko‘p takrorlanuvchi nomlar bo‘lib chiqadi. Baxshi yoki shoir o‘z asarini, albatta, tarixiy shaxslar yoki mashhur asar qahramonlari bilan bezaydi bu bilan o‘zining ko‘p narsadan xabardor ekanligini ham namoyish qiladi. Shunday qilib, folklor va yozma adabiyotdagi real va noreal kishi ismlarining tadqiqi yana-da qiziqarliroq ma’lumotlar bilan onomastika sohasini boyitish mumkin.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. *Abdurahmonov D., Bektemirov H. O‘zbek xalq dostonlari onomastikasi. – Toshkent: 1967.*
2. *Begmatov E. Uluqov N. O‘zbek onomastik terminlarining izohli lug‘ati. – Namangan, 2006.*
3. *Go‘ro‘g‘li. 1-kitob. Nashrga tayyorlovchi prof. S. Ro‘zimboyev. “Arab tang‘an” dostoni. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2004.*
4. *Go‘ro‘g‘li. Aytuvchi Rahmatulla shoir Yusuf o‘g‘li. Nashrga tayyorlovchilar: T. Mirzayev va Z. Husainova. – Toshkent: Sharq, 2006.*
5. *Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili. 6-sinf uchun.*
6. *Navoiy. Hayrat ul-abror. O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. Mas‘ul muharrir Vahob Rahmonov. – Toshkent: G‘.G‘ulom nashriyoti, 1989.*
7. *Оллоёров Қ. Хоразм дostonлари ономастикаси. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2017.*
8. *Oshiqnoma. 1- kitob. Nashrga tayyorlovchi prof. S. Ro‘zimboyev. “Roi chin” dostoni. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006.*
9. *Oshiqnoma. 2-kitob. Mas‘ul muharrir S.Ro‘zimboyev. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. “Miskim va Gulqand” dostoni.*
10. *Oshiqnoma. 2-kitob. Mas‘ul muharrir S.Ro‘zimboyev. – Urganch: Xorazm nashriyoti, 2006. “Shahriyor” dostoni.*